

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MO‘MINOV TEMUR ABROR O‘G‘LI

**AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOVNING O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY
FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Mo‘minov Temur Abror o‘g‘li

Akademik Ibrohim Mo‘minovning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan
hissasi

3

Муминов Темур Аброр угли

Вклад академика Ибрагима Муминова к развитие гуманитарных наук в
Узбекистане

25

Muminov Temur Abror ugli

Contribution of Academician Ibrahim Muminov to the development of humanities in
Uzbekistan

49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MO‘MINOV TEMUR ABROR O‘G‘LI

**AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOVNING O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY
FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tar803 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-tarix.nuu.uz) va "ZiyoNET" (www.ziynet.uz) axborot-ta'lim portaliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Qahramon Kenjayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yermetov Avaz Abdullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Hasanov Jasur Mamatqodirovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "23" 09 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat, 106-auditoriya.) Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (135 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino. Tel.: (+99871) 236-46-55, faks: (+99871) 246-02-04.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "04" 09 kuni tarqatildi (2023-yil "20" 06 da 24 -raqamli reyestr bayonnomasi).


X.E. Yunusova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor


J.E. Tog'ayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


N.U. Musayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida davlatlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarning qanday qaror topganligidan qat'i nazar har bir millatning o'z o'tmishini bilishga, tarixida bo'lib o'tgan jarayonlarni tushunishga va shu orqali o'z ajdodlariga nisbatan faxr tuyg'usini his qilishga intilishi birlamchi ehtiyojlardan hisoblanadi. Shu jihatdan tarixning ma'lum bir davrida o'z millatining ijtimoiy-falsafiy tafakkurini o'rganishga umrini bag'ishlagan, o'zi yashagan davrning ilmiy muhiti va ruhini belgilab bergan shaxslarning, xususan, XX asr o'zbek falsafa maktabining tom ma'nodagi asoschisi va o'zbek ilm-fanining haqiqiy tashkilotchisi akademik Ibrohim Mo'minovich Mo'minovning hayoti hamda faoliyatini, O'zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning turli ilmiy tadqiqot markazlari va muassasalarida sovet yillarida O'zbekistonda ijtimoiy fanlarda hukmron bo'lgan mafkuraviy holatlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar, XX asr o'zbek fani, uni tashkil etish, rivojlantirish va ommalashtirish ishiga o'z umri hamda mehnatini safarbar etgan olimlarning shaxsiy hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunday bo'lsa-da, zamonaviy o'zbek falsafa maktabining asoschisi, milliy ilm-fanning haqiqiy tashkilotchisi va dono murabbiy – Ibrohim Mo'minovning hayoti, kasbiy, ilmiy va jamoatchilik ishlari yaxlit tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Shu jihatdan hujjatli manbalar, ilmiy adabiyotlar va maqolalar, ilmiy ishlar va risolalar, xotiralar va og'zaki tarix materiallari asosida Ibrohim Mo'minov hayotining barcha qirralari hamda O'zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mustaqil taraqqiyot davrining dastlabki yillaridan Ibrohim Mo'minov hayoti va ilmiy merosini o'rganish yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lsa-da, sovet yillarida uning shaxsini hamda o'zbek ilm-fani uchun qilgan xizmatlarini o'rganishga qo'yilgan norasmiy "taqiq" o'z kuchini saqlab qoldi. Biroq tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish zarurati¹, mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur ilmiy tahlili davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda². Shu jihatdan yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bergan imkoniyatlardan foydalanib, uzoq va yaqin o'tmishda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosni chuqur o'rganish va ommalashtirish, o'zbek ilm-fanini tashkil etish va yuritishda fidoyilik, tashkilotchilik ruhini qayta uyg'otish muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2016-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining faoliyatini yanada takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида / Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: Адолат, 2018. – Б. 3-4.

PF-4907-sonli Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarorlarida hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘li, ilmiy va jamoatchilik faoliyati, uning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini ochib berishga xizmat qiladigan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, risolalar, xotiralar, ilmiy va publitsistik maqolalar, Respublika arxivlarida saqlanayotgan hujjatli manbalar hamda zamondoshlari, hamkasblari, shogirdlari va qarindoshlari bilan uyushtirilgan suhbat-intervyu materiallarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga oid adabiyotlar olimning hayot yo‘lini yorituvchi xotiralar, risola va maqolalardan iborat bo‘lib, ulardagi ma’lumotlar ba’zida bir-birini takrorlasa ham, o‘zining xolisligi va samimiyligi bilan ajralib turadi³. Ayniqsa, Ibrohim Mo‘minovning hayoti va faoliyatini atroflicha tadqiq qilishda S.Shermuhamedovning “Qomusiy olim”, S.Shermuhamedov va N.Umrzoqovanning “Davrimiz allomasi”, N.G‘oyibovning “Donishmand” risolalarini alohida qayd etib o‘tish lozim⁴. Shuningdek, O.Fayzullayevning “XX asr ziyolilari: ustozlarim va safdoshlarim” nomli xotira kitobida Ibrohim Mo‘minovning insoniylik qiyofigi nihoyatda mahorat bilan tasvirlangan⁵.

Ibrohim Mo‘minov to‘g‘risidagi maqolalar va xotiralar ichida G‘aybulloh as-Salomning yodnomalari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning “Halollik bozorda sotilmaydi”, “Ezgulikka chog‘lan, odamzod” va “Ey umri aziz” kabi asarlarida Ibrohim Mo‘minovning shaxs, olim va inson sifatidagi suvrati hamda siyrati samimiy tasvirlab

³ Содиқов О.С. И.М.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида // Мўминов И.М. Танланган асарлар. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1969; Зияев Ҳ. Илмий рисола // Совет Ўзбекистони, 1969. 4 январь; Худойберганов Н. Жасорат // Шарқ юлдузи, 1970. – № 12.5. – Б. 204-207; Абдуллаев М., Шермухамедов Я., Холназаров С. Қомус // Совет Ўзбекистони, 1968. 15 ноябрь; Воспоминание о И.М.Муминове. – Ташкент: Фан, 1978; Шермухамедов С. Атоқли философ олим ва йирик жамоат арбоби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982; Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993; Зоҳидий А. Тафаккурнинг олмос қирралари // Мулоқот, 1993. – № 9-10; Академик Иброҳим Мўминовнинг 85 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция тезислари. – Самарқанд, 1993; Шермухамедов С. Как жизненный родник // Ўзбекистон овози, 1991. 21 декабрь; Яхшиликков Ж., Аллоёров М. Атоқли олим ва фан арбоби И.М.Мўминов. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1993; Камтарин инсон, етук аллома // Фарғона ҳақиқати, 1993. 16 декабр.

⁴ Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998; Шермухамедов С., Умрзоқова Н. Давримиз алломаси. – Тошкент: Фан, 1998; Ғойибов Н. Донишманд. – Тошкент: О‘zbekiston, 2008.

⁵ Файзуллаев О. XX аср зиёлилари: устозларим ва сафдошларим. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008.

berilgan⁶.

Ikkinchi guruhga Ibrohim Mo‘minovning ijtimoiy faoliyati va ilmiy merosiga oid adabiyotlar kiradi. Bu maqolalar va nashrlarda olimning milliy fanga qo‘shgan hissasi tahlil etilgan⁷. Taassufki, ba’zi olimlar tomonidan Ibrohim Mo‘minov yozgan risolalar ustidan shikoyatlar, nohaq tuhmatlar uyushtirilgan bo‘lib⁸, 1973-yilda A.P.Navoselsevning “Вопросы истории” va M.Abduraimovning “История СССР” kabi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarida bu holatga yaqqol guvoh bo‘lish mumkin.

Uchinchi guruhga Ibrohim Mo‘minov faoliyatini jiddiy tadqiqot mavzusi sifatida o‘rgangan olimlarning ishlarini kiritishimiz mumkin⁹. Xususan, H.Qahhorovning “Академик Ibrohim Mo‘minov va uning o‘zbek xalqi milliy madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni” va D.Y.Xodjayevevaning “Ibrohim Mo‘minov ilmiy merosida ijtimoiy falsafa muammolari” nomli dissertatsiyalarida Ibrohim Mo‘minovning o‘zbek xalqi milliy madaniyati taraqqiyoti uchun amalga oshirgan xizmatlari hamda uning ilmiy merosida ijtimoiy falsafa muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mavzuni tadqiq etishda Ibrohim Mo‘minov faoliyat ko‘rsatgan davr va u bilan zamondosh bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida yozilgan ilmiy ishlarning ham ahamiyatini qayd etish joiz¹⁰.

Keyingi yillarda olimning hayoti va ilmiy faoliyatini yoritishda Sh.A.Haitovning “O‘zbekiston falsafa tarixi” asari o‘zining yangicha yondashuvlari bilan ajralib turadi¹¹. Shu bilan birga, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan chop etilgan “O‘zbek falsafasi tarixi” asarida Ibrohim Mo‘minov faoliyati to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar keltirilgan¹².

⁶ Файбуллоҳ ас-Салом. Ҳалоллик бозорда сотилмайди. – Тошкент: Адолат, 1998; Файбуллоҳ ас-Салом. Эзгуликка чоғлан, одамзод. – Тошкент: Шарқ, 1997; Файбуллоҳ ас-Салом. Эй умри азиз. – Тошкент: Шарқ, 1997.

⁷ Жалолов А. Иброҳим Мўминов – аллома, арбоб ва инсон // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12,5/ – Б. 32-36; Носиров Р., Шарипов Ж. И.М.Мўминов асарларида Берунийнинг табиий-илмий ва фалсафий қарашлари талқини // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12; Лунин Б.В. И.М.Мўминов и журнал “Общественный науки в Узбекистане” // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12; Валиев А.К. И.М.Мўминов асарларида ижтимоий муаммолар. Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар) тўплами. – Тошкент, 1993; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент, 1993; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент : Ўзбекистон, 2019; Юсупов Э. Зулмат ичида зиё излаб. Хотиралар. Биринчи китоб I. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2019; Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Тошкент: Доно нашриёти, 2017; Зиёев Ҳ. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 136 б.; Сатторий Ҳ. Сохибқирон абадияти. II. – Тошкент: Sharq нашриёти, 2019; Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси (“Темур эсдаликлари”, “Малфузоти Темурий”). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021; Шамсутдинов Р. Абдуллаев Ҳабиб Муҳамедович (1912-1962) // Водийнома, 2017. Апрель-Июн. – № 3 (5). Махсус сон; Бегматов А. И.Мўминов Очилмаган Амир Темур // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1990. 24 август; Мўминов сабоқлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992. 19 июнь.

⁸ Новосельцев А.П. Об исторической оценке Тимура // Вопросы истории, 1973. – № 2; Абдураимов М. Обзор литературы, посвященной Тимуру и Тимуридам, изданной в Узбекистане в 60- х годах // История СССР, 1973. – № 5. – С. 83-90.

⁹ Қаҳҳоров Х. Академик Иброҳим Мўминов ва унинг ўзбек халқи миллий маданияти тараққиётидаги ўрни. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 1999; Ходжаева Д.Ю. Иброҳим Мўминов илмий меросида ижтимоий фалсафа муаммолари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2002.

¹⁰ Ҳасанов Ж.М. Ҳ.М.Абдуллаевнинг Ўзбекистон фани ривожига ўрни ва илмий мероси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Андижон, 2019.

¹¹ Хайтов Ш.И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. – Тошкент: Noshir, 2011. – 560 б.

¹² Ўзбек фалсафаси тарихи (III жилд). – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. – 504 б.

1964-yilda Moskvada nashr etilgan “Философская энциклопедия”da Ibrohim Mo‘minov to‘g‘risida maqola berilgan. Afsuski, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida chop etilgan “Falsafa qomusi”da o‘zbek falsafa maktabining yirik namoyondasi to‘g‘risida ma’lumot keltirilmagan¹³.

Mavzuga bevosita aloqador bo‘lmasada, aynan shu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham muammoning nazariy va uslubiy jihatlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Xususan, Q.K.Rajabovning tarixiy maqolalari va monografiyalari¹⁴, shuningdek, “Buxoro viloyati tarixi (qisqacha ma’lumotnoma)” va “Shofirkon tumani tarixi (qisqacha ma’lumotnoma)” kabi asarlari¹⁵, O.B.Baxtiyorzodaning “Akademik I.H.Hamroboyevning ilmiy merosi va O‘zbekistonda geologiya rivojida roli”, J.M.Xasanovning “H.M.Abdullayevning O‘zbekiston fani rivojida roli va ilmiy merosi” va Sh.Xonqulovning “Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarda Hamza Hakimzoda Niyoziyning roli” mavzusidagi dissertatsiyalari¹⁶, B.Pasilov¹⁷, R.Shigabiddinov¹⁸, SH.Ergashev¹⁹ning alohida tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlari hamda tarixchi olim Ra‘no Rajapova tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlab chop etilgan kitob²⁰ mazkur muammoni o‘rganishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Jahon tarixshunosligida, xususan, g‘arb tadqiqotchilari asarlarida siyosiy yetakchilar va tarixiy shaxslar tarixining o‘rganishning nazariy-metodologik masalalari atroflicha aks ettirilgan²¹.

Ibrohim Mo‘minov tadqiqotlari xorijlik tarixchilar, tahlilchilarning ham nazariga tushgan. 1969-yilda Germaniyada Boymirza Hayitning “Turkistonda Amir Temur haqida yangi fikrlar” maqolasi e‘lon qilindi va unda muallif tomonidan Ibrohim Mo‘minovning ilmiy jasoratini alohida ko‘rsatib o‘tilgan²². Amerikalik olim

¹³ Философская энциклопедия. – Москва: Изд-во Советская энциклопедия, 1964. – 584 с.; Falsafa: qomusi lug‘at (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir: Q.Nazarov). – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 496 b.

¹⁴ Ражабов Қ. Файзулла Хўжаев (Тарихий эссе.) – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011. – 48 б.; Ражабов Қ. Шарафли йўл (Шароф Рашидов хақида) // “Muhofaza+”, 2019. – № 5. – В. 28-30; Ражабов Қ. Давр долгалари (Имонжон Усмонхўжаев сиёсий фаолиятига чизгилар) // “Muhofaza+”, 2019. – № 6. – В. 28; Ражабов Қ. Нуриддин Муҳиддинов. – Тошкент: Ilm-ziyo zakovat, 2019. – 40 б.; Ражабов Қ. Назир Ражабов (Тарихий эссе). – Тошкент: Vodomzor invest, 2021. – 288 б.

¹⁵ Ражабов Қ. Бухоро вилояти тарихи (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 156+VIII б.; Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шифиркон тумани тарихи (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 126+VIII б.

¹⁶ Бахтиёрзода О.Б. Научное наследие и роль академика И.Х. Хамрабаева в развитии геологии в Узбекистане. Автореферат кан. ист. наук. – Ташкент, 2011. – 30 с.; Ҳасанов Ж.М. Ҳ.М.Абдуллаевнинг Ўзбекистон фани ривожидagi ўрни ва илмий мероси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Андижон, 2019; Хонкулов Ш.Х. Фарғона водийсидаги ижтимоий-маданий жараёнларда Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Фарғона, 2022.

¹⁷ Пасилов Б. Усмон Юсупов. – Тошкент: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 36 б.

¹⁸ Шигабдинов Р. Амин Ниязов. – Ташкент: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 28 с.

¹⁹ Эргашев Ш. Шароф Рашидов. – Тошкент: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 36 б.

²⁰ Ҳалоллик ва талабчанлик тимсоли (Тарихчи олима Раёно Ёдгоровна Ражапова таваллудининг 85 йиллигига бағишланади). Кириш мақоласи муаллифи, тўпловчи ва нашрга тайёрловчи ҳамда масъул муҳаррир: Қ.Ражабов. – Тошкент: Vodomzor invest, 2021. – 360 б.

²¹ Вильсон А. Биография как история. – Москва: Наука, 1970. – 16 с.; Gleason G. Sharaf Rashidov and the dilemmas of national leadership // Central Asian Survey, 2007. – P. 133-160; Клейменова А.Е. Историческое развитие изучения феномена лидерства; Donald S. Carlisle. The Uzbek power elite: Politburo and secretariat (1938-83) // Central Asian Survey, 2007. – P. 91-132.

²² Hayit V. Turkistonda Emir Temir haqida yeni fikrlar // Milliy Turkistan. Janvar-april, 1969.

D.Montgomeri esa Ibrohim Mo‘minov tahriri ostida chop etilgan ikki jildlik “Samarqand tarixi” va O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi jildlariga ijobiy baho beradi²³. Mashhur fransuz olimi Oliver Rua sovet mustabid tuzumi sharoitida Ibrohim Mo‘minov tomonidan Amir Temur shaxsiyatiga ijobiy yondashuv markaziy hokimiyatning qattiq e‘tiroziga sabab bo‘lganini yozadi²⁴.

Ibrohim Mo‘minovning hayoti va faoliyati, uning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganishda Respublika va joriy arxivlarda saqlanayotgan hujjatli manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivi, Samarqand viloyati davlat arxivi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi hamda “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotining joriy arxivi jamg‘armalarida saqlanayotgan hujjatlarda Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘li va kasbiy faoliyati, uning o‘zbek ilm-fanining rivoji yo‘lida qilgan xizmatlari ochib berishga xizmat qiluvchi ma‘lumotlar keltirilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqolalar, publitsistik materiallar va xotiralar, shuningdek, hujjatli manbalarning tahlili hamda ulardan olingan ma‘lumotlarning umumlashmasi shuni ko‘rsatmoqdaki, Ibrohim Mo‘minovning hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyati, uning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi tarixshunoslikda shu vaqtgacha alohida va kompleks tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining A-OT-2021-542-sonli “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalarning ta‘lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma hamda multimediali kompleksini yaratish (1925-1953-yillarda Toshkent shahri madaniy hayoti misolida)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akademik Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘li, kasbiy va ilmiy faoliyatini o‘rganish orqali uning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘li, ilmiy va kasbiy faoliyati hamda serqirra faylasuf olim sifatida shakllanish jarayonini tarixiylik kontekstida yoritish, uning ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi va o‘zbek falsafa maktabini yaratishdagi faoliyatini tahlil etish;

Ijtimoiy fanlarning yirik tashkilotchisi Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘lining dastlabki bosqichlari va Samarqand ilmiy muhitidagi faoliyatini ochib berish;

Ibrohim Mo‘minovning ilmiy faoliyati va Turkiston xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixini o‘rganiishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatish;

Ibrohim Mo‘minovning O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, xususan, Tarix va arxeologiya hamda Falsafa va huquq institutlari tizimidagi faoliyatiga baho berish;

²³ Montgomery D. Review of Samarkand taarixi by I.Muminov et al // The American historical review, 1976. October. Volume 81. No 4.

²⁴ Oliver R. The new Central Asia. The creation of nations. – New York University press, 2000. – P. 168.

Sovet yillarida Ibrohim Mo‘minovning milliy tarixni o‘rganishdagi xizmatlari, Amir Temur shaxsini xolisona yoritishdagi ilmiy jasoratini tahlil etish;

Ibrohim Mo‘minovning ilmiy maktabi va uning milliy-ilmiy kadrlar tayyorlashdagi xizmatlarini ko‘rsatish;

Ibrohim Mo‘minovning birinchi O‘zbek Qomusining yaratilishidagi roli va uning shaxsiyatini u yashagan davr prizmasida ochib berish;

Amalga oshirilgan tadqiqot bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektini Ibrohim Mo‘minovning hayoti va faoliyati, uning respublika ilm-fani, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda olib borgan sa’y-harakatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sovet yillarida milliy ziyolilarga munosabat ziddiyatli bo‘lgan davrda Ibrohim Mo‘minovning Respublika ilm-fani rivojiga, milliy kadrlar salohiyatini oshirishga, qator ijtimoiy-gumanitar tarmoq institutlarini ochish orqali Vatanimiz iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy yuksalishiga qo‘shgan hissasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Ibrohim Mo‘minovning sovet mafkurasi hukmronligi sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqot muassasalari, xususan, adabiyotshunolar, iqtisodchilar, huquqshunolar, faylasuflar, tarixchilar va sharqshunolardan iborat olimlar faoliyatini davr talablari hamda milliy manfaatlar bilan muvofiqlashtirib borganini ochib berilgan;

Ibrohim Mo‘minovning rahbarlik faoliyatida xalq manfaatlarining ustuvorligi, respublikaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojiga, xususan, zamonaviy falsafa maktabiga asos solinishi, Hindiston, Afg‘oniston, Pokiston va boshqa davlatlarda keng tarqalgan Mirzo Abdulqodir Bedil ijodining o‘rganishi, O‘zbekiston tarixining qadimgi davri, buyuk allomalar hayoti va faoliyatini tadqiq etishi, shaharlar tarixi, Amir Temur va temuriylar davri, jadidchilik g‘oyasi va milliy-ozodlik harakatlari tarixiga doir tadqiqotlarning amalga oshirilishiga qo‘shgan hissasi dalillangan;

Ibrohim Mo‘minov ilmiy maktabi va uning milliy kadrlar tayyorlashdagi milliy hamda pragmatik yondashuvlari nafaqat O‘zbekistonda, balki butun O‘rta Osiyo va Qozog‘iston mintaqasida birinchi Qomusni yaratishdagi tashabbuskorligi hamda tashkilotchiligi, xususan, O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyatini tashkil etishdagi jonbozligi arxiv hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlar asosida ochib berilgan;

Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur shaxsini sovet tuzumi davrida xolis o‘rganish ishini boshlab berishdek ilmiy jasorati va unga bo‘lgan nohaq tazyiqlardan iborat kompaniyaning avj oldirilishi, xususan, o‘zbek xalqining o‘rta asrlar tarixiga oid yozma manbalar va qo‘lyozmalarining nashr etilishi hamda o‘rganilishining to‘xtatilishi va yo‘q qilinishi, faylasuf olimga qilingan xujumlar umrining oxirigacha davom etganligi arxiv hujjatlari, u kishi bilan birga mehnat qilgan zamondoshlarining xotiralari va og‘zaki tarix materiallari asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibrohim Mo‘minovning hayoti, kasbiy, ilmiy va jamoatchilik faoliyatiga oid

hujjatli manbalar, xususan, O‘zbekiston Milliy arxivi, Samarqand viloyati davlat arxivi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi jamg‘armalarida saqlanayotgan hujjatlarda keltirilgan ma‘lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi;

Ibrohim Mo‘minovning hayoti va faoliyatiga oid hujjatli manbalar, ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar va maqolalarda keltirilgan ko‘plab ma‘lumotlar, masalan, olimning tavallud sanasi, boshlang‘ich ta‘limi, Samarqand dorulfununi va Fanlar akademiyasi tizimida olib borgan ishlari bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar aniqlandi hamda dalillandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan manbalar, arxiv hujjatlari hamda og‘zaki tarix namunalaridan keng qo‘llanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda sovet boshqaruvi, yakka kommunistik mafkura hukmronligi davrida milliy ziyolilarning ahvoli, ijtimoiy gumanitar fanlar rivojida ziddiyatlar, bu jarayonda mashhur olimlar va davlat arboblarning tutgan o‘rni ko‘plab yangi tarixiy faktlar, ma‘lumotlar bilan ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy o‘quv yurtlari, umumta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi uchun darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, davlat muzeylari uchun eksponatlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi va Oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “Fan va texnologiyalar” kursida qo‘shimcha materiallar sifatida ishlatish maqsadga muvofiqligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Akademik Ibrohim Mo‘minovning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasiga oid hujjatli manbalar, ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, risolalar, ilmiy va publitsistik maqolalarda keltirilgan ma‘lumotlarni tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar hamda natijalar asosida:

Ibrohim Mo‘minovning hayoti, kasbiy, ilmiy va jamoatchilik faoliyatiga oid hujjatli manbalar, ilmiy adabiyotlar va ishlarning tadqiq etilishi natijasida olingan ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Markaziy Osiyo xalqaro instituti tomonidan Ibrohim Mo‘minovning hayoti hamda ilmiy faoliyati bo‘yicha ma‘lumotnoma tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Markaziy Osiyo xalqaro institutining 2021-yil 25-dekabrda 03/03-2-894-sonli ma‘lumotnomasi). Ma‘lumotlarning joriy etilishi Ibrohim Mo‘minovning hayoti yo‘li, ilmiy va ijtimoiy faoliyati, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutining tashkil etilishidagi roli, birinchi O‘zbek qomusining yaratilishidagi o‘rni, O‘zbekiston fani va ta‘limi rivojiga qo‘shgan hissasini kengroq ochib berishga xizmat qilgan;

Ibrohim Mo‘minov ilmiy maktabi va uning milliy kadrlar tayyorlashdagi milliy hamda pragmatik yondashuvlari, nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda birinchi Qomusni yaratishdagi tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, xususan, O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyatini tashkil etishdagi tashabbuskorligi va

uning faoliyatidagi jonbozligi O‘zME joriy arxivi hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarning tahlili hamda umumlashtirilishi orqali olingan natijalardan O‘zbekiston MTRK “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdirlar” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanali DUKning 2022-yil 19-sentabrdagi 02-30/1529-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarning joriy etilishi Ibrohim Mo‘minovning hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyati, uning XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek ilm-fanining tashkilotchisi sifatidagi faoliyatini kengroq yoritishga ko‘maklashgan;

Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur shaxsini mustabid sovet davrida xolis o‘rganish ishini boshlab berishdek ilmiy jasorati va unga bo‘lgan nohaq tazyiqlar, xususan, ilmiy yangiliklarning joriy etilishiga bo‘lgan og‘zaki va yozma qarshiliklar, asarlarning nashrdan to‘xtalishi hamda yo‘q qilishini arxiv hujjatlari, u kishi bilan birga mehnat qilgan zamondoshlarning xotiralari va og‘zaki tarix materiallar asosida ochib beruvchi ma’lumotlardan Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondini boyitishda foydalanilgan (Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondining 2022-yil 16-dekabrdagi 04-60-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot natijalarining joriy etilishi O‘zbekistonda temurshunoslik maktabini boshlab bergan Ibrohim Mo‘minov faoliyatini chuqur tadqiq etish, fondni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqot ishning asosiy natijalari va xulosalari 6 ta ilmiy anjuman hamda seminarlarda, jumladan, 3 ta xalqaro konferensiya va 3 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya asosiy mazmuni bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta maqola respublika va 2 maqola xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati, ilova va shartli qisqartmalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 149 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ibrohim Mo‘minov – izlanuvchan talaba, mohir pedagog va olim**” deb nomlangan birinchi bobida Ibrohim Mo‘minov hayot yo‘lining ilk yillari, o‘quvchilik va talabalik bosqichidan boshlab uning Samarqand dorulfununida mohir pedagog hamda faylasuf olim sifatida shakllangunga qadar bo‘lgan davri bayon qilingan.

Ibrohim Mo‘minov 1908-yil 7-oktabrda o‘sha paytda Buxoro amirligining Shofirkon tumaniga qarashli Tezguzar qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida dunyoga

kelgan²⁵. Sovet va mustaqillik davrining ilk yillaridagi adabiyotlarda Ibrohim Mo‘minovning tug‘ilgan sanasi 1908-yil 7-sentabr tarzida ko‘rsatilgan. Olim o‘z dastxati bilan yozgan avtobiografiyasida 7-oktabrda tavallud topgani haqida yozadi. Keyinchalik, tug‘ilgan sanalari bir oy oldinga surilgan²⁶.

Yosh Ibrohim 1922-yilgacha otasiga yordam berib cho‘ponlik qiladi. Olimning ota-onasi ham savodli, o‘qimishli kishilardan bo‘lib, onasi Mahfiratbibi uyda qizlarga dars berish shug‘ullangan. Ular farzandlarini ilm olishga, tarbiyasiga katta e‘tibor bilan qaragan. Keyinchalik, Ibrohim Mo‘minov “Ustozim – volidam” degan maqolasida volidayi muhtaramasini mehr bilan yodga oladi²⁷.

Shu paytga qadar Ibrohim Mo‘minov to‘g‘risida yozilgan maqola, risola, monografiya va hatto dissertatsiyalarda uning 1922-1927-yillarda maktabda o‘qiganligi ko‘rsatilgan²⁸. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivida saqlanayotgan hujjatda ham shu ma‘lumot qayd etilgan²⁹. Bu Ibrohim Mo‘minov 14 yoshida maktabga borgan, degan noto‘g‘ri xulosaga olib keladi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh Ibrohim 6-7 yoshlarida Tezguzarda masjid qoshidagi maktabda tahsil olgan³⁰.

1922-1927-yillarda dastlab boshlang‘ich maktabda, so‘ngra Buxoro maorif institutida tahsil olgan Ibrohim Mo‘minov 1925-yildan o‘qituvchilik faoliyati bilan ham shug‘ullana boshlagan³¹. 1927-yilda Buxoro maorif institutini muvaffaqiyatli tamomlagan Ibrohim Mo‘minov dastlab Buxoro shahrida ochilgan ikki yillik pedagogika kurslarida jamiyatshunoslik va sinfiy kurash tarixidan dars beradi³². 1928-yilda Ibrohim Mo‘minov Buxoroning yosh iste‘dodli vakillari qatorida Samarqand shahriga, Oliy pedagogika institutining ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetiga o‘qishga yuboriladi³³.

Milliy ziyolilarni tarbiyalab yetkazishda O‘zbekiston pedagogika akademiyasining alohida o‘rni borligini qayd etib o‘tish lozim. Bu yerda birinchi o‘zbek professorlari Abdurauf Fitrat, Po‘lat Soliyev, adabiyotshunos olim Olim Sharafiddinov, tilshunos olim, professor G‘ozi Olim Yunusov, rus sharqshunos olimi, arxeolog Vasiliy Lavrentevich Vyatkinlar faoliyat olib borganlar. Ularning say‘-harakatlari natijasida o‘zbek ilm-fanining Samarqand maktabi shakllangan edi.

Bo‘lajak faylasuf olimning ilmiy-pedagogik faoliyati 1930-yillarda, u Samarqandda O‘zbekiston Pedagogika akademiyasida faoliyat olib borgan vaqtlarda boshlangan. Mazkur maktab vakili Po‘lat Soliyev XX asrda O‘zbekistonda tarix fani

²⁵ Ўзбек Совет энциклопедияси. 7- жилд. – Тошкент, 1976. – 194 б.; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003. – 214 б.; Ғойибов Н. Донишманд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 6-9; Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 1998. – Б. 3.

²⁶ Иброҳим Мўминовнинг таваллуд топган куни айрим манбаларда 7 сентябр, айримларида 7 ноябр деб берилган (Т.М.).

²⁷ Мўминов И. Устозим – волидам // Фан ва турмуш, 1968.

²⁸ Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. – 100 б.; Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: ЎМЭ нашриёти, 1998. – 24 б.; Ғойибов Н. Донишманд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 64 б.; Хаитов Ш.И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. – Тошкент: Ношир, 2011. – Б. 425; Собиров А. Ученый, не поступившийся убеждениями // Народное слова. 9 ноября 2021 года. – С. 4.

²⁹ Ўзбекистон Фанлар Академияси Марказий архиви 1-жамғарма, 2-л рўйхат, 114-иш, 3-варақ.

³⁰ Хаитов Ш.И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. – Тошкент: Ношир, 2011. – 425 б.

³¹ Марказий архиви 1-жамғарма, 2-л Ўзбекистон Фанлар Академияси рўйхат, 114-иш, 3-варақ.

³² Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Марказий архиви, 1-жамғарма, 2-Л-рўйхат, 114-иш, 3-варақ.

³³ Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: ЎМЭ нашриёти, 1998. – Б. 4.

sohasida birinchi bo‘lib professor unvoniga loyiq topilgan. U O‘zbekiston va O‘rta Osiyo xalqlarining tarixini xolisona hamda ilmiy asosda o‘rganishni boshlab bergan fidokor olimdir. Ibrohim Mo‘minov, Yahyo G‘ulomov, Abdurahmon Hamroyev va Rashid Nabiyeu kabi mashhur tarixchilar aynan Po‘lat Soliyev asos solgan tarixchilik maktabida yetishib chiqqan hamda uning ilk vakillari edilar³⁴. Tarixchi olimlar Melixon Oxunova va Boris Luninlar ham Ibrohim Mo‘minov, Mahmud Aminov, Yahyo G‘ulomov, Hodi Zarifov kabi yirik olimlarning 20-30-yillarda Samarqand dorulfununida Po‘lat Soliyevdan ta‘lim olishganini ta‘kidlashadi³⁵.

Ibrohim Mo‘minov yoshligidan tarix, ijtimoiy fanlar, falsafa ilmiga qiziqdi, shu sohalar bo‘yicha maqolalar yozdi. 1933-yilda uning falsafa sohasidagi birinchi tadqiqoti – “Dialektik materializmning rivojlanishida Lenin bosqichi” nomli maqolasi “Lenin bayrog‘i” gazetasida e‘lon qilinadi. 1939-yilda “Lenin yo‘li” (hozirgi “Zarafshon” – T.M.) gazetasida “Gegel dialektikasining ratsional mag‘zi”, “Inqilobchi-demokrat N.G. Chernishevskiyning materializmi” va “Ulug‘ dialektik-materialist” nomli maqolalari e‘lon qilingan³⁶. 1941-yilda xuddi shu gazetada olimning “Alisher Navoiy – buyuk ma‘rifatparvar” nomli maqolasi e‘lon qilindi³⁷. Bu maqolalar uning faylasuf sifatida shakllanib borayotganligidan, falsafa bo‘yicha tadqiqot yo‘liga tushganligidan dalolat edi.

1933-yilda O‘zbek Oliy Pedagogika akademiyasi negizida O‘zbek davlat universiteti tashkil etildi³⁸ va va Ibrohim Mo‘minov ham shu oliygohning katta ilmiy xodimi sifatida tashkilotchilik ishlarida faol ishtirok etdi. U dastlab filologiya, so‘ng tarix fakulteti dekani, falsafa kafedrasining mudiri lavozimlarida faoliyat olib bordi³⁹.

1941-yilda Ibrohim Mo‘minov “Gegel dialektikasining ratsional mag‘zi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va mahalliy millat vakillari orasida birinchilardan bo‘lib falsafa sohasida ilmiy daraja olishga erishdi⁴⁰.

XX asr 40-yillaridan boshlab Ibrohim Mo‘minovning ilmiy faoliyatida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichning alohida belgisi – Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkurining yirik vakili Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1720) qarashlarini o‘rganish hamda tadqiq qilishga qaratilgan. Shu birga o‘ziga xos bedilxonlik maktabi yaratilgan. Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasi Ibrohim Mo‘minov uchun asosiy halqa bo‘lib, uni o‘rganish orqali mintaqa xalqlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarining rivojiga doir yirik asar yozish mumkin edi⁴¹. Oradan ko‘p o‘tmay Ibrohim Mo‘minovning Bedil

³⁴ Темиров Ф. У. Пулат Солиев (рисола). Лойиха муаллифи ва масъул мухаррир Қ.К. Ражабов. – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – Б. 4.

³⁵ Ахунова М.А., Луин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. Отв. ред. М.К.Нурмухаммедов. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 78.

³⁶ Муминов И. Избранные произведения. В 4-х т. – Ташкент: Узбекистан, 1977. Т. 4. Вопросы социалистической культуры в Узбекистане. Ред. коллегия: А.С.Садыков и др. – С. 389.

³⁷ Шермухаммедов С. Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 31.

³⁸ 1962 йилдан Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети.

³⁹ Шермухаммедов С. Қомусий олим. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 1998. – Б. 4.

⁴⁰ Шермухаммедов С. Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 31.

⁴¹ Шермухаммедов С. Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 31.

falsafasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari e‘lon qilindi”⁴². Shuningdek, Ibrohim Mo‘minov Samarqanddagi ilmiy va kasbiy faoliyati davomida o‘z kuch-g‘ayratini Ahmad Donish, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa o‘zbek ma‘rifatparvarlarining ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlarini o‘rganishga ham sarfladi.

1945-1949-yillarda Ibrohim Mo‘minovning “Mirzo Abdulqodir Bedil”, “Mirzo Abdulqodir Bedil to‘g‘risida”, “Shoir va mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil to‘g‘risida”, “Shoir Furqat rus madaniyati to‘g‘risida”, “Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy qarashlari” va “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti tarixidan” nomli maqolalari e‘lon qilindi⁴³.

1950-yilda Ibrohim Mo‘minov o‘zining ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va falsafa bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini oldi. SSSR Fanlar akademiyasi Falsafa institutida himoya qilingan ushbu ilmiy tadqiqotga Sadridin Ayniy (1878-1954) va mashhur sharqshunos olim Y.E.Bertels (1890-1957) ilmiy maslahatchi sifatida biriktirilgan edi⁴⁴.

Ibrohim Mo‘minov Samarqand dorulfununida Said Shermuhamedov, Nayim G‘oyibov, Muzaffar Xayrullayev kabi o‘zbek ilm-fani rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlarni tarbiyalab yetishtirdi. Ayniqsa, shogirdlaridan biri – bo‘lajak jamoat va davlat arbobi Sharof Rashidov bilan munosabatlari nihoyatda samimiy bo‘lib, keyinchalik bu aloqalar qarindoshchilik rishtalari bilan chambarchas bog‘landi.

Umuman olganda, Samarqand ilmiy va ma‘rifiy muhiti Mo‘minovlar sulolasining ko‘plab vakillari qatorida Ibrohim Mo‘minovning hayotida uning buyuk faylasuf, fan tashkilotchisi va jamoat arbobi bo‘lib yetishishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Samarqand dorulfununida Ibrohim Mo‘minov faylasuf sifatida shakllandi va zamonaviy o‘zbek falsafa maktabining asoslari aynan shu yerda shakllandi.

1955-yilda Ibrohim Mo‘minovning “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti tarixidan” nomli yana bir monografiyasi e‘lon qilindi⁴⁵. Bu asarda Turkistonning mustamlaka bo‘lgan davrdagi madaniy hayoti, mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, uning xususiyatlari yoritilgan edi⁴⁶. 1957-yilda nashrdan chiqqan “Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” deb nomlangan monografiyasida faylasufning hayoti va ijodi, ontologik va gnoseologik qarashlari, ijtimoiy-siyosiy va qisman axloqiy qarashlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan⁴⁷.

Ibrohim Mo‘minov tadqiqotlari bibliografiyasida ko‘zga yaqqol tashlanadigan

⁴² Воспоминания о И. Муминове. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 33-34; Ғойибов Н. Донишманд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 16.

⁴³ Муминов И. Избранные произведения. В 4-х т. – Ташкент: Узбекистан, 1977. Т. 4. Вопросы социалистической культуры в Узбекистане. Ред. коллегия: А.С.Садыков и др. – С. 389-390.

⁴⁴ Шермухаммедов С. Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 32.

⁴⁵ Муминов И. Из истории развития общественно философской мысли в Узбекистане в конце XIX и в начале XX вв. – Ташкент, 1957.

⁴⁶ Шермухаммедов С. Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 32.

⁴⁷ Мухаммадева О. Бедил ва ахлоқий кадриятлар фалсафаси (монография). – Тошкент: Yangi nashr, 2016. – Б. 5-6.

jihatlardan yana biri yillar o'tgani sayin muayyan bir vaqtning o'zida, asosiy tadqiqot mavzusidan tashqari, boshqa yo'nalishlarda ham tobora ko'proq izlanishlar olib borilganidir. Jumladan, 1950-yilda asosiy ilmiy ishdan tashqari, uchta mavzuda; 1959-yilda – o'nta mavzuda; 1968-yilda esa asosiy e'tibor Amir Temur to'g'risidagi tadqiqotga qaratilgan holda yana o'n oltita mavzuda izlanishlar olib borilgan va maqolalar chop etilgan⁴⁸. XX asrning 60-70 yillarida Mirzo Ulug'bek va uning maktabi vakillarining ilmiy merosi bilan faol shug'ullana boshlagan olimlarning orasida Ibrohim Mo'minov ham bor edi⁴⁹. Masalan, 1977-yilda chop etilgan “Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане”⁵⁰ nomli asarda O'zbekiston hududida qadim davrlardan 1917-yilgacha falsafiy tafakkurning rivoji tahlil qilingan. Ushbu asarda Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Chag'miniy, Pahlavon Mahmud, Abulxasan Ali Jurjoniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab, Ahmad Donish, Zokirjon Holmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy va Hamza Hakimzoda Niyoziyning falsafiy hamda ijtimoiy qarashlari bayon etilgan.

Xullas, Ibrohim Mo'minov o'zining ilmiy izlanishlari orqali nafaqat zamonaviy o'zbek falsafa maktabiga asos soldi, balki X asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrda Turkiston xalqlari mutafakkirlari ijtimoiy-falsafiy tafakkurining tadrijiy rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Dissertatsiyaning **“Ibrohim Mo'minov – fan tashkilotchisi va o'zbek falsafa maktabining asoschisi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Ibrohim Mo'minovning 1955-1974-yillarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tizimida Tarix va arxeologiya institutining direktori (1955-1956-yillar), Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti (1956-1974-yillar), Falsafa va huquq institutining direktori (1958-1959-yillar) hamda boshqa lavozimlardagi faoliyati, haqiqiy fan tashkilotchisi hamda zamonaviy o'zbek falsafa maktabining asoschisi sifatidagi xizmatlari ko'rsatib berilgan.

1955-yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasini yuqori malakali va yetuk mutaxassis olimlar bilan mustahkamlash maqsadida Ibrohim Mo'minov mazkur muassasaga ishga taklif etiladi⁵¹. 1955-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining direktori etib tayinlangan Ibrohim Mo'minov bir yil davomida ushbu lavozimda faoliyat olib borgan bo'lsada⁵², Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida o'n sakkiz yil davomida (1956-1974-yillarda – T.M.) milliy tarixchilik maktabining haqiqiy jonkuyari bo'la oldi.

Ibrohim Mo'minov Tarix va arxeologiya institutini takomillashtira borib, “Shaharlar tarixi” bo'limini tashkil qildi. Bo'lim qadimgi va hozirgi zamon shaharlar tarixini o'rganishga ixtisoslashgan bo'lib, Ibrohim Mo'minov mas'ul muharrirligida ikki jildlik “Samarqand tarixi”, “Buxoro tarixi”, “Xorazm tarixi” singari kitoblarni chop

⁴⁸ Гойибов Н. Донишманд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 31.

⁴⁹ Убайдов Н.Э.. Мирзо Улуғбек мероси – маънавиятимиз киррасидир // Мустақил Ўзбекистонда маънавият, маърифат ва халқ саломатлигини сақлашнинг долзарб муаммолари. Беруний номидаги давлат мукофоти совриндори, академик И.М.Мўминовнинг 90-йиллигига бағишланган илмий конференция тўплами. – Самарқанд, 1998. – Б. 72.

⁵⁰ Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. – Ташкент: Изд-во Фан, 1977. – С. 384.

⁵¹ Ўзбекистон Фанлар академияси архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 1-варақ орқа томони.

⁵² Ўзбекистон Фанлар академияси архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 1-варақ орқа томони.

etildi⁵³.

1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab Fanlar akademiyasida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixi bo‘yicha tadqiqotlar kengaya boshladi. Ibrohim Mo‘minov boshchiligidagi faylasuflar jamoasi tomonidan Turkiston xalqlari mutafakkirlarning asarlaridan tanlab olingan hikmatli fikrlar to‘plami chop etildi. Muqimiy, Furqat va O‘zbekistondagi ilg‘or fikrning boshqa vakillarining tafakkurini xususiyatlaydigan asarlar nashrga tayyorlandi. Ibrohim Mo‘minov tomonidan Mirzo Abdulqodir Bedilning dunyoqarashiga oid tadqiqot e‘lon qilindi⁵⁴.

1957-yilda Ibrohim Mo‘minovning tashabbusi bilan Tarix va arxeologiya institutining Falsafa va huquq shu‘basi negizida O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Prezidiumining Falsafa va huquq bo‘limi tashkil etiladi. 1958-yil O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Falsafa va huquq bo‘limi negizida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq instituti tashkil etildi. Uning tizimi va tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish vazifalari ham mazkur institutning birinchi rahbari etib tayinlangan Ibrohim Mo‘minov zimmasiga yuklanadi⁵⁵.

O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivoji xususida so‘z borar ekan, falsafa sohasining asosiy yo‘nalishi sifatida Sharq xalqlari, birinchi navbatda, Turkiston xalqlari falsafiy va ijtimoiy tafakkuri tarixini o‘rganish ekanligi ta‘kidlangan⁵⁶. Mazkur yo‘nalishning O‘zbekistondagi asoschisi so‘zsiz Ibrohim Mo‘minovdir. “Iliqlik” yillarida O‘zbekiston fani ham dunyo miqyosiga chiqdi. Bu davrda Ibrohim Mo‘minov qatorida ijtimoiy-gumanitar soha vakillari Y.G‘ulomov, R.Nabiyev, H.Sulaymonova, O.Aminov, I.Iskandarov, R.Aminova va E.Yusupovlar o‘zbek fanini dunyoga mashhur qildilar, ularning asarlari xorijiy mamlakatlarda nashr etildi⁵⁷. Ibrohim Mo‘minov asos solgan ushbu an‘ana akademik Erkin Yusupov tomonidan munosib davom ettirildi. 1979-1990-yillarda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida faoliyat olib borgan Erkin Yusupov o‘zining ilmiy va ijtimoiy yo‘nalishda olib borgan ishlari bilan o‘zbek ilm-fani obro‘-e‘tiborini butun SSSRga namoyon eta oldi. Ijtimoiy fanlar sohasidagi milliy kadrlar ichida Ibrohim Mo‘minovdan keyin, u 1987-yildan boshlab SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, SSSR Oliy Soveti deputati sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Ibrohim Mo‘minov boshlab bergan ilmiy an‘analarni ziddiyatli qayta qurish davrida ham munosib himoyachisi bo‘la oldi⁵⁸.

O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi prezidenti O.Sodiqovning ta‘biri bilan aytganda, “cho‘ponlikdan yirik sho‘ro faylasuf olimi, fanning yirik tashkilotchisi,

⁵³ История Самарканда. В двух томах. Том первый. С древнейших времен до великой октябрьской Социалистической революции. Отв.ред. И.М.Муминов. – Ташкент: Фан, 1969. – 484 с.; История Хорезма. С древнейших времен до наших дней. Под ред. акад. АН УзССР И.М.Муминова. – Ташкент: Фан, 1976. – 316 с.; История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под ред. акад. АН УзССР И.М. Муминова. – Ташкент: Фан, 1976. – 383 с.

⁵⁴ Абдуллаев Х.М. 40 лет советской науки в Узбекистане. Изд-во АН УзССР. – Ташкент, 1958. – С. 107-108.

⁵⁵ Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида (1908-1974 йй.) // Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. – Б. 6; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси 50 йил. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 190.

⁵⁶ Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во Фан, 1993. – С. 32.

⁵⁷ Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил: Атокли давлат арбоби ва ёзувчи Шароф Рашидов таваллудининг 100 йиллигига бағишланади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 109.

⁵⁸ Юсупов Э. Зулмат ичида зиё излаб. Хотиралар. Биринчи китоб. – Тошкент: Turon-iqbol, 2019. – Б. 12-13.

davlat va jamoat arbobigacha bo‘lgan murakkab hamda og‘ir yo‘lni bosib o‘tgan”⁵⁹ Ibrohim Mo‘minov o‘zining serqirra ilmiy va kasbiy faoliyati davomida Fanlar akademiyasini o‘zbek ilm-fanining haqiqiy o‘chog‘iga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning o‘z millatiga bo‘lgan chuqur sadoqati, tarixiy-madaniy merosimizga bo‘lgan cheksiz muhabbati, “domla” deya u kishining etagidan tutgan shogirdlariga nisbatan mehribonligi va jonkuyarligi natijasida XX asrning 50-70- yillarida o‘zbek ilm-fanida akademik Ibrohim Mo‘minov fenomeni paydo bo‘ldi.

Sovet davrida ulug‘ bobomiz Amir Temurning haqiqiy tarixiy o‘rnini tiklashga akademik Ibrohim Mo‘minov va professor Asomiddin O‘rinboyev harakat qilgan edilar. Ammo mustabid tuzum mafkurasi ta’sirida bo‘lgan ayrim tarixchilar bunga qarshilik qildilar va natijada 1973-yil iyun oyida Amir Temurning shaxsini rasman qoralashga muvaffaq bo‘ldilar. Hattoki Amir Temur haqidagi kadimgi qo‘lyozma asarlarni chop etish kat’iy man etildi. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari esa sotuvdan yig‘ib olinib, yoqib yuborildi⁶⁰.

Xususan, Ibrohim Mo‘minovning 1968-yili nashr etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”⁶¹ nomli risolasi o‘sha vaqtdayoq, barcha o‘zbek ziyolilari va hurfikrli olimlarning hurmat hamda tahsiniga sazovor bo‘lgan edi. 1969-yilda mazkur asar o‘zbek tilida ham nashr etilgan edi⁶².

Ibrohim Mo‘minov bu jasorati uchun mustabid tuzumning kuchli tazyiqiga uchradi. Fan va madaniyatga beqiyos foyda keltiradigan olim barvaqt olamdan ketdi⁶³. Bu kurashning ichida bo‘lgan Hamid Ziyoyev Ibrohim Mo‘minovning “... Siz hali yoshsiz, ko‘rasiz, shunday vaqtlar keladiki, Amir Temurni ko‘klarga ko‘tarib, buyuk shaxs sifatida qadrlaydilar. Bu sohada biz birinchi qadamni qo‘ydik, xolos”, degan so‘zlarini keltiradi⁶⁴. Darhaqiqat, uning bu bashorati hozirda ko‘z o‘ngimizda ro‘yobga chiqib, Amir Temur mustaqillik va ozodlik timsoli sifatida qadr-qimmatga ega bo‘ldi.

Ibrohim Mo‘minov O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida 18 yil davomida O‘zbekistonda faqat falsafa ilmi va faylasuf olimlarni tayyorlash bilan cheklanmasdan, tarix, filologiya, sharqshunoslik fanlarining rivojiga, shu sohalar uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga ham nihoyatda katta xizmat qildi. Shu yerda insof yuzasidan aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga rahbarlik qilgan Habib Abdullayev va Ibrohim Mo‘minovlardek allomalarimizni har qanday tashabbuslarini Respublika rahbari Sharof Rashidov qo‘llab-quvvatlagan⁶⁵.

XX asrning 50-yillarida O‘zbekiston SSRda 35 ga oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, ularning barchasida ijtimoiy fanlar kafedralari, ko‘pchiligida maxsus falsafa kafedralari ochilgan edi⁶⁶. Biroq falsafa sohasida dars beradigan milliy kadrlar masalasi jiddiy muammo hisoblangan. Bir tomondan, o‘sha davrda respublikada faqat ikki kishi –

⁵⁹ Мўминов И.М. Танланган асарлар. Уч томлик. 1 том. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 7.

⁶⁰ Темур қиссаси: Амир Темур Кўрагон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 3.

⁶¹ Мўминов И.М. Роль и места Амира Темура в истории Средней Азии. – Ташкент: Изд-во Фан, 1968. – С. 46.

⁶² Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё халқлари тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 45.

⁶³ Файзиёв Т. Темурийлар шажараси: // Илмий-тарихий оммабоп нашр. – Тошкент: Info Capital Group, 2020. – Б. 354.

⁶⁴ Зиёев Х. Она шахрим Тошкент ва ҳаёт йўлимдан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 112.

⁶⁵ Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Тошкент, 2017. – Б. 165.

⁶⁶ Валиев А.Қ. Жокуяр устоз // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 59.

Ibrohim Mo‘minov va V.Zohidov falsafa fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, V.Zohidov adabiyotshunoslik sohasida faoliyat olib borar edi.

Bu vaqtda Ibrohim Mo‘minov Samarqanddagi O‘zbek davlat universitetida kafedra mudiri bo‘lib ishlar edi. Falsafa bo‘yicha ilmiy ishni himoya qilish uchun Moskva yoki boshqa shaharlarga borish zarur edi. O‘zbekiston oliy ta‘limida faylasuflarga bo‘lgan talabning oshib borayotganligini hisobga olgan Ibrohim Mo‘minov, 1950-yillarning o‘rtalarida O‘zbek davlat universitetidagi Birlashgan ilmiy kengashda falsafa bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilish uchun ruxsat oladi⁶⁷. Bu ilmiy kengashda birinchilardan bo‘lib M.Xayrullayev, A.Axtamov, R.Karimov, G‘.Abdullayev va boshqalar falsafa bo‘yicha o‘z dissertatsiyalarini himoya qildilar hamda fan nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdilar. XX asrning 60-70-yillari falsafa va huquqshunoslik sohasida fan doktorlari tayyorlashning sermahsul davri bo‘ldi. Xususan, 1964-1970-yillarda faylasuflardan R.Abdushukurov, Q.Xonazarov, E.Yusupov, M.Xayrullayev, A.Ortiqov, A.Valiyev va H.Po‘latovlar doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

Dissertatsiyaning **“Ibrohim Mo‘minov – qomuschi olim va jamoat arbobi sifatida”** deb nomlangan uchinchi bobida Ibrohim Mo‘minovning o‘zbek xalqi, uning ilm-fani va madaniyati oldidagi buyuk xizmatlaridan biri, balki eng kattasi – birinchi o‘zbek ilmiy qomusining yaratilishidagi xizmatlari, olim yashagan davrning uning faoliyatiga bevosita ta’siri hamda uning jamoat faoli sifatidagi faoliyati xususida so‘z boradi.

Qomus – bu millatning ko‘zgidir. Unda millatning uzoq o‘tmish tarixi va hozirgi ahvoli, iqtisodiyoti, madaniyati, maorifi, ilm-fani, milliy va ma‘naviy qadriyatlarini, mashhur arbob va allomalari, tarixiy namoyandalari, obidalari, urf-odatlarini, an‘analari, rasm-rusmlari, jahon moddiy va ma‘naviy xazinasiga qo‘shgan hissasi aks etadi.

O‘zbek qomuschiligi uzoq tarixga ega. Ajdodlarimiz kishilik bilimlarini umumlashtirish to‘g‘risida ko‘p orzu qilganlar, ayrim ilmiy sohalar bo‘yicha qomus va lug‘atlar yaratganlar, fan xazinasini ajoyib durdonalar bilan boyitganlar. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomuschi olimlarning asarlari o‘sha davrdagi bilimlarni atroflicha qamrab olgan edi⁶⁸.

Birinchi o‘zbek qomusini yaratish ishlari XX asrning 60- yillarida boshlangan. 1968-yili O‘zbekiston xalqining madaniy, ilmiy hayotida katta voqea sodir bo‘ldi: 14 jilddan iborat O‘zbek Sovet Ensiklopediyasini chop etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi⁶⁹. Shubhasiz, 1968-yil o‘zbek qomuschiligining tavallud topgan sanasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1968-yil 8-yanvardagi 6-sonli qarori bilan O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tarkibida O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh muharririyati tashkil etilgan⁷⁰. O‘zSE jamoasi zimmasiga respublikamiz tarixida birinchi marta O‘zbek qomusini yaratishdek

⁶⁷ Валиев А.К. Жокуяр устоз // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 59.

⁶⁸ Саъдий М. Теран томирлар: Адабий танқидий мақолалар ва суҳбатлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 123.

⁶⁹ Шермухамедов С. Қомусий олим. – Тошкент: ЎМЭ нашриёти, 1998. – Б. 16.

⁷⁰ ЎзССР Министрлар Совети қарорлари тўплами. – Т., 1968. Январ. 130-132-варақлар.

mas'uliyatli vazifa yuklatildi. Bu sharaflı ishni bajarishga bel bog'lagan O'zSE jamoasi muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi. Dastlab 1967-yilda Qomusning 1-jildi maketi 750 nusxada chop etildi⁷¹. Bu O'zbek qomusini yaratish yo'lidagi dastlabki muhim qadamlardan biri edi. 1968-yilda O'zSEning 1-jildini tayyorlash va nashrga tayyorlash ishlari nihoyasiga yetkazildi⁷². O'zSEning 1-jildini yaratish davomida yuzga yaqin turli ixtisosdagi kishilar va jamoalardan mulohaza hamda takliflar olingan. Ularda qomusda e'lon qilinajak maqolalar mazmuni, rasm, xarita va bezaklar, ayrim so'z va mafhumlarning berilishiga doir mulohazalargacha bildirilgan. Qomusni nashrga tayyorlashga kirishishda dastlab bir qancha qiyinchiliklarga ham duch kelingan bo'lib, asosiy qiyinchilik – turli fan sohalari va nashriyot ishlarini biladigan mutaxassislarning yetishmasligi bo'ldi. 1968-yilda O'zSE Bosh tahririyati alohida ilmiy muassasaga aylantirildi va qomuschilarning katta jamoasi asosan tashkil topdi⁷³.

Qomusning birinchi jildida Amir Temurga bag'ishlangan maqolani berish zarur edi. Ilm-fan ahli, umuman tarix, tarixiy shaxslar, ma'naviy qadriyatlar, madaniy meros bilan qiziquvchi har bir o'zbek Qomus Amir Temur shaxsiga qanday baho berar ekan, uni xolisona ko'rsatuvchi maqola e'lon qilinarmikan, deb kutgan edi. Ibrohim Mo'minov 1-jild uchun Amir Temur to'g'risida maqola yozgan edi. Taxminan bir bosma taboqqa yaqin maqola qayta-qayta muhokama va taqrizlardan so'ng nashrga topshirildi. Ikki marta korrektura o'qildi va 1-jild bosmadan chiqarish uchun tayyor holatga keltirildi.

Biroq bu maqola o'sha davrda hukm surgan taqiqlar, birinchi navbatda, mafkuraviy bosim bilan olib tashlanadi. A.Valiyevning bu jarayonni quyidagicha xotirlaydi: “Shu kunlarda Ibrohim Mo'minov meni chaqirib, 1-jilddagi “Amir Temur” maqolasini olib tashlashni iltimos qildilar. Bu hech kutilmagan hodisa bo'ldi. Bu maqolani olib tashlash qomusning chiqishini kechikishini, o'quvchilar 1-jilddan aynan shu maqolani izlashlarini aytib, maqolani saqlab qolishga urinib ko'rdim. Shunda u kishi bu buyruq juda yuqori doiralardan kelganligini, hatto Moskva ham bu masalaga aralashayotganini aytdilar. Natijada, 1 bosma taboqdan iborat juda yaxshi va xolisona yozilgan maqola olib tashlanib, o'rniga “Amir Temur” q. “Temur”, deb havola berildi. “Amir Temur” maqolasi “Temur” nomi bilan Qomusning 8-jildida 8 ming belgiga yaqin, ya'ni avvalgi hajmidan 5 barobar qisqartirilgan hajmda berildi”⁷⁴.

O'zSEning 1-jildida fanning 48 sohasidan jami 3350 maqola, shu jumladan, tabiatshunoslik va texnika fanlari bo'yicha 1783, ijtimoiy fanlar bo'yicha 1567 maqola e'lon qilingan. 1-jildda mahalliy materiallar jami materiallarning yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan. Bu jildni tayyorlashda 654 muallif qatnashdi, ular orasida SSSR FA va O'zbekiston SSR FA akademiklaridan 14 kishi, muxbir a'zolaridan 13 kishi, fan doktorlari va professorlaridan 88 kishi, turli mutaxassis va fan nomzodlaridan 539 kishi bo'lgan⁷⁵. O'zbek Sovet Ensiklopediyasi tahririyatida ishlagan Sulton Xolnazarovning

⁷¹ Ўзбек Совет Энциклопедияси. 1-жилди макети. – Тошкент: Фан нашриёти, 1967. – Б. 563.

⁷² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси жорий архиви 1-жамғарма, 1-рўйхат, 2-иш, 1-варақ.

⁷³ Саъдий М. Теран томирлар: Адабий танкидий мақолалар ва суҳбатлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 122.

⁷⁴ Валиев А.К. Жонкуяр устоз // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998. – № 12. – Б. 61.

⁷⁵ Саъдий М. Теран томирлар: Адабий танкидий мақолалар ва суҳбатлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 125-126.

xotirlashicha, “Qomus biz uchun tom ma’noda haqiqiy maktab vazifasini o’tagan”⁷⁶. Ensiklopediyaning 13-jildini tayyorlashda faol ishtirok etgan muharrirlardan biri Nuriddin Musayev O‘zSE Bosh tahririyatida xizmat qilgan xodimlarning oylik maoshi katta ilmiy xodimning maoshiga teng bo‘lganligini ta’kidlaydi⁷⁷.

O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi qisqa fursat ichida yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, mintaqa tarixidagi birinchi qomus sifatida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari uchun namuna bo‘lib xizmat qildi.

Ibrohim Mo‘minovning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy sohalarda olib borgan ishlarini u yashagan davr prizmasida tahlil qilish orqali juda ko‘plab savollarga yechim topish mumkin. Tarixga nazar tashlasak taqdirning og‘ir sinovlari millatning buyuk farzandlari, ziyolilari boshiga tushganini ko‘ramiz. Ziyoli insonlar doimo hurfiylik va haqiqat uchun bevosita yoki bilvosita kurashganlar. Shuning uchun ham dunyo va o‘zbek falsafasida, tarixshunosligida ziyolilar masalasini o‘rganish, tadqiq qilish doimo dolzarb bo‘lib kelgan⁷⁸.

Bugun insoniyat tarixi sahifalarini mudhish totalitar rejim “qatag‘onlari” bilan to‘ldirgan sovet voqeligini atroflicha o‘rganish yangicha nuqtayi nazardan davom etmoqda. Shu jihatdan sovet davriga, u davr kishilari faoliyatiga baho berganimizda, ularni qayta o‘rganganimizda bugunning ko‘zi, bugunning mezonini bilan yondoshmasligimiz, davrning murakkabliklarini doimo yodda tutishimiz, xalqimiz tarixiga katta hurmat bilan qaramog‘imiz lozim.

Jahon tarixshunosligida buyuklarning tarjimai holi qaytadan kashf qilinmoqda. O‘zbekiston tarixidagi ulug‘ siymolarning kechmishini o‘rganish har qachongidan ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ibrohim Mo‘minov va Habib Abdullayev kabi allomalarimiz hayotini tadqiq etish XX asr o‘zbek fani tarixi sahifalarini yangi ma’lumotlar bilan boyitishi shubhasiz.

Habib Abdullayevning yonida vitse-prezident sifatida faoliyat yuritgan Ibrohim Mo‘minov u bilan hammaslak, hamfikir sifatida juda ko‘p savobli ishlarni amalga oshirdilar. Ana shu sa’y-harakatning natijasi o‘laroq ko‘plab yoshlar Moskva, Leningrad kabi shaharlardagi nufuzli institut va universitetlarga talaba hamda aspirant sifatida yuborilgan. Keyinroq ana shu yoshlar Fanlar akademiyasida shu paytgacha hukm surib kelgan turg‘un bir vaziyatni o‘zgartirib yubordi. O‘zbek fanining nomi butun SSSRda jaranglay boshladi.

Ibrohim Mo‘minov kommunistik mafkurasi hukmron bo‘lgan zamonda milliy iftixorimizni ilmiy ravishda jahon miqyosiga ko‘tarishni O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti sifatida o‘zining asosiy ilmiy tashkilotchilik vazifasi deb bildi. Bu ishlar oson ko‘chmadi, albatta. Qaltis ish yomon natijalarga olib bormasligi uchun u ustalik bilan, baynalminallikni rivojlantirish uchun, avvalo, milliylikni boyitish zarur, degan uslubda ish olib bordi⁷⁹.

⁷⁶ ЎзСЭ Бош таҳририятида узоқ йиллар муҳаррир сифатида ишлаган С.Холназаров билан суҳбат-интервью материаллари. 2022 йил 5 май.

⁷⁷ ЎзСЭ Бош таҳририятида муҳаррир бўлиб ишлаган, тарих фанлари доктори, профессор Н.Мусаев билан суҳбат-интервью материаллари. 2022 йил 28 март.

⁷⁸ Хасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 – начала 50 годов – Ташкент, 2000. 170 стр.

⁷⁹ Файзуллаев О. “Эл ардоқлаган олим” // Ўзбекистон овози газетаси. 2003 йил 23 октябр сони.

Rus, qozoq, tojik, fors, turk va nemis tillarini yaxshi bilgan⁸⁰ olimning tashabbusi bilan O‘zbekiston, Turkistonda yashab ijod qilgan olimlarimiz merosini kengroq o‘rganish maqsadida Samarqand, Dushanbe, Moskva shaharlarida maxsus ilmiy konferensiyalar tashkil etildi. Shu bilan birga Ibrohim Mo‘minov chet ellarda, xususan, Italiya, Gretsiya, Chexoslavakiya, Pokiston, Vengriya mamlakatlarida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda Turkiston xalqlari mutafakkirlarining jahon falsafiy fikrlari taraqqiyotdagi o‘mi va mavqeini keng targ‘ib hamda tashviq qilgan⁸¹. Uning YUNESKO bosh qarorgohida Abu Rayhon Beruniyning 1000 yilligiga bag‘ishlangan “Xorazmlik buyuk qomusiy olim” mavzusida qilgan ilmiy ma’ruzasining yozma matni o‘zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida nashr etilgan.

Ibrohim Mo‘minov faqat pedagogik, ilmiy va tashkilotchilik faoliyati bilan cheklanmadi. U 1947-1951-yillarda O‘zSSR Oliy Soveti, 1948-1952-yillarda Samarqand shahar kengashi, 1966-1974-yillarda O‘zSSR Oliy Soveti deputati bo‘lgan⁸². U kishi jumhuriyat Oliy Sovetining Tashqi ishlar bo‘yicha doimiy komissiyasining muttasil raisi sifatida ham tanilgan edi. Ibrohim Mo‘minov respublikaning yetakchi ilmiy nashrlaridan biri – “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalining tashabbuskori hamda muttasil bosh muharriri, qator ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy jurnallar tahrir hay‘atlari hamda bir necha Ilmiy kengashlarning a‘zosi edi⁸³. O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasidagi asosiy faoliyatidan tashqari Ibrohim Mo‘minov 1958-1974-yillarda “Bilim” jamiyatiga rahbarlik qildi, 1959-1974-yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) professori lavozimlarida faoliyat olib bordi.

Tog‘dan qanchalik uzoqlashsang, uning salobati, ulkanligi, ko‘rki shunchalik yaqqolroq ko‘rinadi⁸⁴, deganlaridek Ibrohim Mo‘minov yashagan davrdan qanchalik uzoqlashmaylik ular qoldirgan meros shunchayin ulug‘vorlik kasb etib boraveradi. U o‘z umri mazmunini el-yurtga halol xizmat qilishda deb bilgani shubhasiz.

Umuman olganda Ibrohim Mo‘minov yashagan davr o‘zining murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga to‘laligi, qarama-qarshiliklar, o‘tmish va kelajakning ayovsiz kurashi bilan xususiyatlanadi.

XULOSA

XX asr o‘zbek fanining eng yorqin vakillaridan biri, haqiqiy olim va murabbiy, zamonaviy o‘zbek falsafa maktabining asoschisi va fan tashkilotchisi akademik Ibrohim Mo‘minovning hayoti, kasbiy va ilmiy faoliyati hamda O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasiga oid arxiv hujjatlari, xotiralar, maqolalar va risolalar, ilmiy ishlar va monografiyalarda keltirilgan ma’lumotlarning tahlili natijasida quyidagi **xulosalar**ga kelish mumkin:

1. Akademik Ibrohim Mo‘minovning hayoti va ilmiy faoliyatiga doir arxiv hujjatlarining katta qismi hali tizimli ravishda o‘rganilmagan hamda ularda keltirilgan

⁸⁰ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси жорий архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 36-варак.

⁸¹ Шермухамедов С. Қомусий олим . – Тошкент: ЎМЭ нашриёти, 1998. 20-21бетлар.

⁸² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси жорий архиви 1-жамғарма, 2-л-рўйхат, 114-сақлов бирлиги, 37-варак.

⁸³ Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. – Б. 8.

⁸⁴ Ғойибов Н. Донишманд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 5.

ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilmagan. Biroq aynan arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarning o'rganilishi, qiyosiy va tanqidiy tahlili Ibrohim Mo'minov hayoti hamda ilmiy faoliyati bilan bog'liq mavjud subyektivlikni minimal darajaga tushirish va allomaning hayoti hamda faoliyati to'g'risida xolis ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatini beradi;

2. Samarqandda Ibrohim Mo'minov faylasuf olim sifatida shakllandi va zamonaviy o'zbek falsafa maktabining ildizlari shu yerda paydo bo'ldi. Keyinchalik O'zbekistonning mashhur faylasuflari bo'lib yetishgan Said Shermuhammedov, Naim G'oyibov, Muzaffar Hayrullayevlarning ham aynan shu oliygohda ta'lim olishgani ham fikrimizning to'g'ri ekanligi asoslaydi;

3. Ibrohim Mo'minov hayotining istalgan bosqichini o'rganishda xotiralar, maqolalar, risolalar, darslik va monografiyalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan birga Samarqand viloyati davlat arxivi, O'zbekiston Milliy arxivi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi jamg'armalarida saqlanayotgan hujjatlarni birgalikda o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va olingan natijalarni umumlashtirish juda ko'plab ma'lumotlarga aniqlik kiritish hamda tanlab olingan bosqich bo'yicha jarayonlarni to'laroq ochib berish imkoniyatini beradi;

4. Ibrohim Mo'minov XX asrning 40-50-yillarida o'zining mashaqqatli mehnati va amalga oshirgan tadqiqotlari bilan zamonaviy o'zbek falsafa maktabining yaratuvchisi hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, Turkiston xalqlari mutafakkirlarining ilmiy merosining o'rganilishi, falsafa fanining akademik fan darajasiga ko'tarilishi hamda uning shogirdlari – Erkin Yusupov, Said Shermuhammedov, Muzaffar Hayrullayev, Naim G'oyibovlar tomonidan olim boshlagan ilmiy an'analar davom ettirilgan;

5. Ibrohim Mo'minov o'zining serqirra ilmiy va kasbiy faoliyati davomida Fanlar akademiyasini o'zbek ilm-fanining haqiqiy o'chog'iga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Uning o'z millatiga bo'lgan chuqur sadoqati, tarixiy-madaniy merosiga bo'lgan cheksiz muhabbati, "domla" deya u kishining etagidan tutgan shogirdlariga nisbatan mehribonligi va jonkuyarligi natijasida XX asrning 50-70 yillarida o'zbek ilm-fanida akademik Ibrohim Mo'minov fenomeni paydo bo'ldi;

6. Ibrohim Mo'minov O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tizimida dastlab Tarix va arxeologiya institutining direktori (1955-1956), akademiya vitse-prezidenti lavozimida ishlagan yillari (1956-1974) uning olimlik, rahbarlik, ijodkorlik fazilatlarini, ajoyib iste'dodi yanada yorqin namoyon bo'ldi. U O'zbekistonda ijtimoiy fanlarning tashkiliy jihatdan mustahkamlanishiga, bu sohaning yanada kengayishi, ilmiy mutaxassislar safining ko'payishiga katta hissa qo'shdi;

7. Ibrohim Mo'minov Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida O'zbekistondagi barcha ijtimoiy-falsafiy yo'nalishlarning boshida turdi va ayni vaqtda Amir Temur hamda temuriylar davrini ilmiy jihatdan o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. U o'zining zohiran uzoq, ammo botinan yaqin vatandoshi, buyuk sohibqiron va davlat arbobi Amir Temurning shaxsi, uning saltanati va temuriylar davri haqida uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan, Temuriylar va ularning jahon tarixidagi o'rnini hamda roli to'g'risida salmoqli asarlar yaratgan buyuk alloma, mustabid tuzum sharoitida temurshunoslikni boshlab bergan darg'a edi;

8. Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur saltanati tarixi, uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlari katta ahamiyatga ega. Mustabid tuzum quturib, ma‘muriy buyruqbozlik, markazning yakka hokimligi avj olib, o‘zbek xalqi tarixi ochiqdan-ochiq soxtalashtirilayotgan, milliy va ma‘naviy qadriyatlar, uning buyuk siymolari tahqirlanayotgan, tarixiy haqiqatni aytish uchun intilayotganlar esa quvg‘in qilinayotgan bir sharoitda “qonxo‘r Temur” haqida xolisona ijobiy fikr aytish chinakam ilmiy matonat va tom ma‘nodagi qahramonlik edi. Bu harakatlar keyinchalik kurtak yozib o‘zbek ziyolilarida Amir Temur shaxsini o‘rganishni kuchaytirdi;

9. Ibrohim Mo‘minov asos solgan ilmiy maktab, uning O‘zbekistonda milliy-ilmiy kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari xususida so‘z borganda uning buyuk inson va olim, jonkuyar murabbiy va mehribon ustoz bo‘lganligi, O‘zbekiston ilm-faniga, madaniyati va ma‘naviyati taraqqiyotiga, o‘z davrining yetuk kadrlarini tayyorlashga qo‘shgan hissasini alohida e‘tirof etish zarur;

10. Alloma boshchiligidagi O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi tashkilotchilari, muharrirlari va mualliflari SSSR markazini ham rozi qilgan holda bu qomusda xalqimizning, Turkiston xalqlarining qadimiy va boy madaniy, ma‘naviy merosini, turli fanlar va xalq xo‘jaligidagi ulkan g‘alabalarni dunyoga tanitishga, yosh avlodlarga turli sohalarida qomusiy bilimlar berishni maqsad qildilar hamda bu maqsadga ma‘lum darajada erishdilar;

11. Ibrohim Mo‘minov qanday davr bo‘lishidan qat‘i nazar o‘zining mehribon ota va kuyunchak ustoz kabi insoniylik tamoyillariga sodiq qoldi, o‘z millati va Vatani o‘tmishini o‘rganish yo‘lida beminnat xizmat qildi.

Akademik Ibrohim Mo‘minovning hayot yo‘li, ilmiy va kasbiy faoliyati hamda O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot davomida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Ibrohim Mo‘minovning O‘zbekiston tarixi, xususan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishdagi hissasining e‘tirofi sifatida olimni xalqaro “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlash;

2. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarning tadrijiy rivojlanish yo‘lini davom ettirish, bu sohada yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash maqsadida “Ibrohim Mo‘minov o‘qishlari”ni davom ettirish va har yili muntazam o‘tkazib borish;

3. O‘zbekiston ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqot olib borayotgan yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, soha rivojining davomiyligini ta‘minlash maqsadida Ibrohim Mo‘minov nomidagi jamg‘arma va stipendiya tashkil etish;

4. Zamonaviy o‘zbek falsafa maktabining asoschisi va fanimizning yirik tashkilotchisi Ibrohim Mo‘minovning ko‘p yillik ilmiy hamda kasbiy faoliyatini ochib berish, olimning O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini va o‘zbek fanida u yaratgan ruhiyatni targ‘ib qilish maqsadida Samarqand hamda Toshkent shaharlarida Ibrohim Mo‘minov uy-muzeyini qayta tashkil qilish;

5. Ijtimoiy fanlarda erishilgan yuksak yutuqlar uchun akademik Ibrohim Mo‘minov nomidagi oltin medalini ta‘sis etish;

6. Akademik Ibrohim Mo‘minovning to‘la asarlari to‘plamini chop qilish;

7. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetiga akademik Ibrohim Mo‘minov nomini berish.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04.
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

МУМИНОВ ТЕМУР АБРОР УГЛИ

**ВКЛАД АКАДЕМИКА ИБРАГИМА МУМИНОВА В РАЗВИТИЕ
ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК В УЗБЕКИСТАНЕ**

**07.00.01 – История Узбекистана
07.00.02 – История науки и техники**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации на соискание учение степен доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за B2022.3. PhD/Tar803


Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.ik-tarix.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyounet.uz)

Научный руководитель:	Раджабов Кахрамон Кенжаевич доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ерметов Аваз Абдуллаевич доктор исторических наук, профессор Хасанов Жасур Маматкодирович доктор философии по историческим наукам (PhD)
Ведущая организация:	Ташкентский государственный технический университет им. Ислама Каримова

Защита диссертации состоится на заседании разовый Научного совета по присуждению учёных степеней за номером DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 при Национальном Университете Узбекистана «23» 09 2023 года в 10⁰⁰ часов (адрес: 100174, город Ташкент, улица Мирзо Голиба, исторический факультет Национального университета Узбекистана, 1-этаж, 106-аудитория). Тел.: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; E-mail: pauka@nuu.uz (Национальный университет Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под номером 135). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, 4. Главный корпус). Тел.: (+99871) 236-46-55; факс: (+99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «07» 09 2023 года.
(протокол реестра за номером 24 от «20» 06 2023года)


Х.Э. Юнусова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор


Ж.Э. Тогаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней д.ф.и.н. (PhD)


Н.У. Мусаев
Председатель научного семинара на базе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертация доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Вне зависимости от того, как решались отношения между государствами и народами в мировом масштабе, стремление каждой нации знать свое прошлое, осознать процессы, происходившие в своей истории, и тем самым испытывать чувство гордости за своих предков, считается одной из первичных потребностей. С этой точки зрения изучение жизни и деятельности, вклада в развитие общественных наук в Узбекистане академика Ибрахима Муминовича Муминова, подлинного основателя узбекской философской школы XX века, настоящего организатора узбекской науки, имеет важное значение, ибо наследие личностей, которые посвятили свою жизнь изучению социально-философского мышления своего народа в определенный исторический период, которые определили научную среду и дух своего времени, всегда остается актуальной задачей.

В различных научно-исследовательских центрах и учреждениях мира проводятся научные исследования, посвященные идеологической ситуации, противоречиям и конфликтам в общественных науках Узбекистана в советские годы, личной жизни, профессиональной и научной деятельности ученых, мобилизовавших всю свою жизнь и энергию на дело организации, развития и популяризации узбекской науки XX века. Тем не менее жизнь, профессиональная, научная и общественная деятельность Ибрахима Муминова, основоположника современной узбекской философской школы, подлинного организатора отечественной науки и мудрого наставника, до сих пор не подвергалась комплексному изучению. В связи с этим исследование всех сторон жизни Ибрахима Муминова и его вклада в развитие общественных наук в Узбекистане на основе документальных источников, научной литературы и статей, научных трудов и брошюр, воспоминаний и материалов устной истории считается актуальной задачей.

Хотя изучение жизни и научного наследия Ибрахима Муминова поднялось на новый уровень с первых лет периода независимого развития, негласный «запрет» на изучение его личности и его заслуг перед узбекской наукой в советские годы оставался в силе. Однако необходимость сохранения, изучения и передачи исторического наследия из поколения в поколение¹, глубокого научного анализа пути развития нашей страны требуют разработки и реализации совершенно новых подходов и принципов для обеспечения еще более стабильного и ускоренного развития нашей страны на современном этапе². В связи с этим, используя возможности, предоставляемые проводимыми в Узбекистане реформами, одной из злободневных задач является углубленное изучение и популяризация научного наследия, оставленного нашими предками в далеком и недавнем прошлом, возрождение духа самоотверженности, инициативности в организации и развитии узбекской науки.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 29-бет.

² См.: Указ Президента Республики Узбекистан №4749 "О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан" от 7 февраля 2017 года. // <https://lex.uz/docs/3107042>

Данное диссертационное исследование в известной мере служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-4907 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и стимулированию деятельности академиков Академии наук Республики Узбекистан» от 29 декабря 2016 года, Постановлении №ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, №ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы» от 26 марта 2021 года, а также в других нормативно-правовых актах, связанных с темой настоящей диссертации.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. Всю научную литературу, диссертации, брошюры, мемуары, научные и публицистические статьи, документальные источники, хранящиеся в архивах Республики, материалы интервью, организованные с современниками, коллегами, учениками и родственниками, которые служат раскрытию жизненного пути, научной и общественной деятельности Ибрахима Муминова, его вклада в развитие общественных наук в Узбекистане, можно условно разделить на следующие группы:

